

Abduraimova Durdona Muxiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi

ToshDO‘TAU 2-bosqich magistranti

abduraimovadurdona@07gmail.com

NAVOIY ASARLARI QO‘LYOZMALARINING TO‘LA KATOLOGINI TAYYORLASH TAMOYILLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali Alisher Navoiy asarlarining to‘la kataloginin yaratish borasidagi ishlar tadqiq etilib, Navoiy asarlarining butunjahon katalogini tuzish prinsiplari haqida ma‘lumot berilgan. Tamoyillar milollar orqali dalillangan. Bu boradagi Turkiyada olib borilgan ishlar tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, asarlari, kutubxonalar, katalog, O Levant, prinsiplar.

Annotation: This article the creation of complete catalog of Alisher Navoi’s works has been researched. The principles of creating a world catalog of Navoi’s work are given. Principles are proved by morals. The work carried out in Turkey in this regard has been studies.

Keywords: Alisher Navoi, works, libraries, catalog, O Levant, principles.

Turkiya fondlaridagi Alisher Navoiy asarlarining qo‘lyozma nusxalarini tadqiq etganimizda XV asrdan XIX asr oralig‘ida turli davr va turli hududlarda ko‘chirilgan nusxalarga duch keldik. Ko‘chirilish tarixi, ko‘chirgan xattoti aniq bo‘lmagan qo‘lyozmalar ham talaygina. Turkiyada Hirotda, Tabrizda, Hajipurda, Toshkentda, Shomda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalarini ham uchratdik. Ko‘chirilgan joyi, yili va xattoti aniq bo‘lmagan nusxalar Turkiyalik olimlar tomonidan Turkiya ko‘chirilgan degan taxminlar ham bor. Navoiy asarlari qo‘lyozma nusxalari haqida ma‘lumotlar Turk tarixi kengashi, Turk tili kengashi, Turkiya qo‘lyozmalar umumiy katalogi, Tarjima qo‘lyozmalar katalogi, Qorabulut katalogi kabi bir qancha kataloglar va ularning elektron saydlarida havola etilgan. Navoiyshunos olimlar tadqiqotida yuqoridagi kataloglarga kirmay qolgan yoki kirgan bo‘lsa ham inventor raqami, sahifasi no‘malum bo‘lgan qo‘lyozmalar ham mavjud. Xalqaro navoiyshunoslikning ajralmas bo‘lagi bu: butun dunyodagi Navoiy asarlarining umumiy ilmiy tasnifini tuzishdir. Tasniflash jarayoni ham o‘z tamoyillariga egadir. O Levant tasnifida asarlar xronologik tarzda tasnif etilgan. Ya‘ni asarlarning yozilish yillari ketma-ketligida tasnif va tavsif qilingan. Ayshevan deniz tadqiqotida esa faqatgina Levant tadqiqotidan so‘ng topilgan nusxalar qayd etilgan.

Qo‘lyozma asarlar kataloglarini tasniflash ilmiy va texnik jihatdan murakkab jarayon bo‘lib, u ko‘plab mezonlarga asoslangan holda tuziladi. Tasniflash prinsiplari qo‘lyozmalarni tizimli tartibda ko‘lashtirish, ularni o‘rganishni osonlashtirish va asar haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni aniq, to‘liq qidirish imkonini berishi uchun ishlab chiqiladi. Aftondil Erkinov fikrlariga ko‘ra tasniflar ikkiga bo‘linadi¹. 1) tarixiy tasnif. Bu tasnif matn tarixiga o‘di ma‘lumotlarga asoslanadi. Bular qo‘lyozmalarining yaratilish davri, ko‘chirilgan o‘rni, ko‘chiruvchi kotib va hokozo.

¹ A. Erkinov. Matnshunoslikka kirish. Toshkent. 1997.31-b

2) shakliy tasnif. Bunda qo‘lyozma tashqi belgilariga qarab tasniflanadi. Masalan, qo‘lyozma sahifalarining soni, qog‘ozi, muqovasi va matnning joylashuvi, siyohi va boshqalar. Bu tasniflash prinsipi bir qo‘lyozma tafnifi va tavsifiga oid.

Navoiyning Turkiya fondlaridagi qo‘lyozma asarlari tasniflashda esa quyida tasniflashning asosiy prinsiplarini keltirib o‘tamiz.

- 1) asarlarni xronologik tasniflash
- 2) asarlarni mazmuniga ko‘ra tasnif
- 3) xat va xattotiga ko‘ra tasniflash
- 4) ko‘chirilgan davriga ko‘ra tasniflash
- 5) saqlanadigan fondlarga ko‘ra tasniflash
- 6) fizik holatiga ko‘ra tasniflash.

Tarixiy tasniflash – xronologik tasniflash tamoyilida Navoiy asarlarining yillar ketma-ketligida kataloglashtirilishi tushuniladi. Matnshunoslik, manbashunoslik va ensiklopediyalarda, Navoiy asarlari kataloglarida xronologik tamoyildan foydalaniladi. Ogoh Sirri Levant ham shu tamoyil asosida Navoiy asarlari qo‘lyozmalarini tavsiflaydi. Uning katalogi ushbu mezonlar asosida yozilgan: dastlab asar nomi, saqlanish yeri, ashyo raqami, muqovasi, muqovaning bichimi, qog‘ozi, xat turi, matnning o‘lchami, matnning nechta ustunga bo‘lingani, matn satrlari, matn ko‘chirilgan siyoh ranglari, har bitta asar yoki janrning bosh qismi va yakuni, arab alifbosida, qo‘lyozma qaysi davrda qaysi podshoh saroyida saqlanganligi, muhri, qo‘lyozmalarining ko‘chirilish tarixi, ko‘chirilgan joyi, kolofon matni, agar qo‘lyozma devon bo‘lsa unda qaysi janrdagi she‘rlar mavjudligi, g‘azallarning alifbo tartibida yakunlanishiga qarab soni, qo‘lyozmadagi miniaturalar haqida ma‘lumotlar tartib bilan berilgan. Ushbu katalog navoiyshunoslikdagi ilk kataloglardan biri bo‘lib, keng qamrovliligi, mukammaligi bilan alohida ahamiyatlidir. Katalog tavsifidan anglash mumkinki, O Levant har bir qo‘lyozma ustida jiddiy shug‘ullangan va asosli ma‘lumotlarga tayangan. O Levant katalogi tuzilgandan so‘ng oradan 70 yilga yaqin vaqt o‘tganligi uchun, bugungi kunga qadan yangi Navoiy asarlari nusxalari topilganligi bois bu katalog ustida tadqiqot qilinish lozim.

Asar mazmuniga ko‘ra tasniflash tamoyili odatda matnshunoslik va manbashunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladi. Bunda Navoiy asarlari mazmuniy jihattadan guruhlariga ajratiladi. Misol uchun: devonlar, masnaviyalar, tarixiy harakterdagi asarlar, diniy-axloqiy mavzudagi asarlar, tilshunoslik ilmiga oid asarlar, xat-hujjatga oid asarlar, aftobiografik harakterdagi asarlar, pand-nasixat yo‘nalishidagi asarlar kabi guruhlariga ajratib tadqiq etiladi. Kataloglar tasnifida ham shu tamoyilni qo‘llash orqali tuzish mumkin.

Xat va xattotiga ko‘ra tasniflash deganda Navoiy asarlarini ko‘chirgan xati va xattotlariga ko‘ra katalog tuzish. Navoiy asarlarini juda ko‘plab xattotlar mohirlik bilan ko‘chirgan. Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar bo‘yicha ham ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. 1991-yilda Muhammadjon Hakimov tomonidan “Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar”² nomli kitob nashr etilgan Navoiyshunoslikda xattotlar sultoni deya maqtalgan Sulon Ali Mashhadiy ko‘chirgan qo‘lyozmalar alohida ahamiyatga ega. Xat turlariga ko‘ra qo‘lyozmalarni tasniflash mumkin. Misol uchun, kufiy, nasta‘liq, taliq, riqo, rayhoni, nasx xatlarida ko‘chirilgan Navoiy asarlari qo‘lyozma nusxalari mavjud. Navoiy asarlarini Sulon Ali Mashhadiy nasta‘liq xatida ko‘chirgan, Abduljabbor Tabrizi ko‘proq nasx va ta‘liq xatlarida, Aldulmajid kotib Navoiyning xos kotiblaridan, Darvesh Muhammad Toqiy³, Ali Ibn Nur, Sulon Muhammad Nur, Sulon Muhammad Xandan, Ali Xijroniy, Chalabiy, Pir Muhammad Ibn Shayx Tohir Tabriziy, Hoji

² Muhammadjon Hakimov Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. –T.: Fan, 1991.

³ Istiqlol davri navoiyshunosligi 30 jildlik. 4-jild, 293-b

Muhammad At-Tabriziy, Abdurahim Kotib, Fanoiy, Mahmud Ibn Dovud, Muhammad Ali A-Kotib, As-Sultoniy, Ibn Abdulmakorim Abdulvahob Al-Hijoziy, Mahmud Ibn Ishoq Shahobiy, Nazli Fayziy, Mir Hasan Kotib, Yusuf Ibn Mullo Muhammad, Davlatshoh Ibn Husayn Kalta Sarahsiy, Rizoquli Ibn Mustafuquli, Ibodulla Ayub Ibn Fayzullo Sheroziy, Muhammad Azizullobek, Muhammad al-Musaviy, Mullo Tursin, Yormuhammad Savod kabi ko‘plab xattotlar turli davrlarda Navoiy asarlarini ko‘chirgan.

Ko‘chirilgan davriga ko‘ra tasniflash deganda Navoiyning asarlarini ko‘chirish jarayoni XV asrdan XIX asrga qadar davr tushuniladi. Ya’ni Navoiyning hayotlik chog‘ida ko‘chirilgan qo‘lyozma asarlar, XVI asrda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxalar kabi kategoriyalarga ajratib tasniflash nazarda tutilgan. Masalan, Sulton Ali Mashhadiy 1495-yilda ko‘chirgan Istanbul Topkapi Revan kutubxonasida saqlanayotgan inv-810 raqamli “Xamsa” qo‘lyozmasi XV asrga oid, Mir Ismoil Asrushoniy 1826-yilda ko‘chirgan Istanbul universiteti kitobligida inv-5451 raqami bilan saqlanadigan “Xamsa” qo‘lyozma nusxasi XIX asrga oid qo‘lyozmalardir.

Saqlanadigan fondlarga ko‘ra tasniflash deganda Alisher Navoiy asarlari qo‘lyozma nusxalarining saqlanish joylariga qarab tasniflash tushuniladi. Turkiyaning turli fondlari, universitet hamda xalq kutubxonalarida, yoki ma’lum shaxslarning shaxsiy kolleksiyasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalarni fodlariga ko‘ra katalogga kiritish mumkin. Tadqiq qilingan ko‘plab nusxalar asosan Turkiyaning Topkapi va Sulaymoniya kutubxonalaridagi qo‘lyozma nusxalardir. Turkiyaning Bosfor universiteti professori, O‘rta asr qo‘lyozma san’ati tarixi mutaxassisi Lale Uluch tadqiqotlari asosida tayyorlangan “O‘zbekiston madaniy merosi jahon to‘plamlari” loyhasi doirasida chop etilgan “Alisher Navoiy asarlarining Istanbul kutubxonalaridagi bezakli qo‘lyozmalari” kitob-albomida Navoiyning 17 ta qo‘lyozma nusxasi haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu to‘plam Alisher Navoiyning Turkiyadagi Topqopi muzeyi kutubxonasi, Sulaymoniya kutubxonasi, Istanbul universiteti kutubxonasi hamda Turk-islom san’ati muzeyida saqlanayotgan XV asrga oid qo‘lyozmalardir.

Fizik holatiga ko‘ra tasniflash deganda qo‘lyozmalarning tashqi tomiga muvofiq tasniflash tushuniladi. Bunda qo‘lyozmalarning hajmi: kichik hajmli risolalar, yirik kulliyotlar; qo‘lyozmalarning sifati: asl nusxalar, ko‘chirmalar, ta’mirlangan qo‘lyozmalarga e’tibor qaratiladi. Tadqiqot davomida to‘liq yoki bir necha sahifalardan iborat Navoiy qo‘lyozmalari nusxalariga duch keldik. Ushbu tasnif orqali qo‘lyozmalarning shaxliy xususiyatlari o‘rganiladi va tasnif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Agah Sırrı Levend, Ali Şir Nevâî (Hayatı, Sanatı ve Kişiliği), C:1, TTK, Ankara, 1965, s.29-40.
2. A. Erkinov. Matnshunoslikka kirish. Toshkent. 1997.31-b
3. Istiqlol davri navoiyshunosligi 30 jildlik. 4-jild, 293-b
4. Muhammadjon Hakimov Alisher Navoiy asarlarini ko‘chirgan xattotlar. –T.: Fan, 1991.
5. Yasin Şen, “Babürname’ye Göre Ali Şir Nevai”, Türk Dünyası Dergisi, 2014, s.8.
6. Kaan Dilek, “Şerefeddîn Ali Yezdî”, T.D.V. İslâm Ansiklopedisi, C:38, s.550-552.
7. Serdar Bulut, “Asya Coğrafyası’nın Büyük Edibi Ali Şir Nevai”, Asya Studies, C:1, 2017, s.23-41.
8. W. Barthold, “Herât ve Herirud Boyu”, Tarih Dergisi, İstanbul, 2011, s.180.
9. Vahit Türk ve Şaban Doğan, Ali Şir Nevayi-Hayretül Ebrar(1.Basım), Türk Kültürünü Araştırma.
10. Enstitüsü, Ankara, 2018.
11. Ömer Yılar, Halk Hikayesi Olarak Ferhat İle Şirin(1. Baskı), Pegem Akademi, Ankara, 2014.

12. Hatice Tören, Ali Şir Nevayi Sedd-i İskenderi, T.D.K Yayınları, Ankara, 2001
13. M. Fuat Köprülü, Ali Şir Nevâyî, Mâârif Matbası, İstanbul, TTK, 1941